№ 1-AMALIY MASHG‘ULOT



Ta'lim texnologiyasining tuzilishi.

Ishning maqsadi – *talabalarga axborot texnologiyalari haqida dastlabki tushunchalarni shakllantirish, ularning kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklarini ko‘rsatish.*

Vazifalar:

1. talabalarga mavzu yuzasidan asosiy tushunchalarni yetkazishni ta’minlash.
2. mavzuni yoritishda lozim bo‘ladigan dasturiy ilovalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.
3. ta’limiy o‘yinlar va interaktiv dasturiy ilovalardan foydalangan holda talabalarning mashg‘ulotga qiziqishlarini oshirish;
4. internetdan ta’limiy maqsadlarda foydalanishning asosiy qoidalarini o‘rgatish.

O‘quv vositalari: *shaxsiy kompyuter, multimediali proektor, ekran, LCD monitor,markerlar, ish daftari, tarqatma materiallar.*

Qisqacha nazariy ma’lumot

Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining maqsad va vazifalari – bu texnologiyalarning asosiy vositasi ShKlar va ular asosida tashkil etiladigan avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari va axborot izlash tizimlaridir.

Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining ta’lim jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy qilish, turli xil axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini beradi va ta’lim mazmunini boyitishga hissa qo‘shadi, talabalarning mantiqiy va izlanuvchanlik xususiyatini ochib beradi, shuningdek, ularni takomillashtirish yo‘llari va vositalarini topish muammolarini hal qiladi.

Mashg‘ulot rejasi:

1. **Kirish qismi** *(10 daqiqa)*:

1.1. talabalar bilan salomlashish va mashg‘ulot mavzusini e’lon qilish;

1.2. amaliy mashg‘ulotni bajarish yuzasidan qisqa suhbat o‘tkazish.

2. **Asosiy qism** *(50 daqiqa)*:

2.1. talabalarning ish faoliyatini kuzatib borish;

2.2. tug‘ilgan savollarga javob berish;

3. **Yakuniy qism** *(20 daqiqa)*:

3.1. talabalar ishlarini tekshirish va muhokama qilish;

3.2. talabalarni rajbatlantirish;

3.3. talabalar uchun uy vazifalarini berish.

3.4. mashg‘ulotni yakunlash.

Mashg‘ulot jarayoni:

mashg‘ulot davomida talabalar faolligini oshirish uchun turli interaktiv usullardan foydalanish;

har bir talabaga kompyuter bilan ishlash imkoniyatini yaratish;

talabalarning mashg‘ulotga qiziqishi va motivatsiyasini oshirishga erishish.

Qo‘shimcha tavsiyalar:

Mashg‘ulotni o‘tkazishdan oldin kompyuter va kompyuter dasturlarining ishga tayyorligini tekshirish talab etiladi. Talabalarning bilim darajalari hisobga olgan holda topshiriqlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Talabalarga axborot xavfsizligi qoidalari haqida qisqacha ma’lumot berish lozim.

Ushbu ishlanma “Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari” fanidan foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Topshiriqlar:

“BSAT” fanida axborot texnologiyalaridan foydalanishning zaruriyatini izohlashni tashkil etish;

“BSAT” fanini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning turli imkoniyatlarini ochib berishni talab qilish;

“BSAT” fanini o‘qitishda AKTdan foydalanish usullarini aniq misollar yordamida ko‘rsatishni so‘rash.

Ushbu topshiriqlarni matn muharririda 5-betdan iborat hujjat asosida topshirishlarini ta’minlash.